

Xurshida TOSHOVA,
NDPI tayanch doktoranti
E-mail: xtoshova90@mail.ru
Tel: 906182612

NavDPI O'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti, f.f.d R.N.Yusubova taqrizi asosida

QORA RANG BILAN BOG'LIQ FRAZEOLGIK BIRLIKLARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada rang bilan bog'liq frazeologik birliklarning milliy-madaniy xususiyatlari, qora leksemasi aks etgan maqol, matal, iboralarning konnotativ xususiyatlari, ya'ni til va madaniyat bilan bog'liqligi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Til, madaniyat, ibora, maqol, matal, rang, qora, konnotatsiya.

ЛИНГВОКУЛЬТУРНАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ, СВЯЗАННЫХ С ЧЕРНЫМ ЦВЕТОМ

Аннотация

В статье анализируются национально-культурные особенности цветных фразеологизмов, коннотативные характеристики пословиц, поговорок и выражений с черной лексемой, то есть их связь с языком и культурой.

Ключевые слова: Язык, культура, выражение, пословица, цвет, черный, коннотация.

LINGUOCULTURAL CHARACTERISTICS OF PHRASEOLOGICAL UNITS RELATED TO THE COLOR BLACK

Annotation

The article analyzes the national-cultural characteristics of color-related phraseological units, the connotative characteristics of proverbs, sayings, and expressions with the black lexeme, i.e., their connection with language and culture.

Key words: Language, culture, expression, proverb, matal, color, black, connotation.

Olamning lisoniy manzarasi ranglar orqali aks etadi. Ranglar orqali aks etgan maqollar, matallar, iboralar kabi frazeologik birliklar har bir tilda shu til egasining milliy madaniyatini, milliy dunyoqarashini, milliy urf-odatlarini mujassamlashtiradi. Shu sababli til millat ruhidir. Ana shu milliy ruh bo'lgan tilimiz necha ming yillik tarixga ega. Rang bilan bog'liq frazeologik birliklar haqida gapirar ekanmiz Qora rang bu o'rinda o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu so'z etimologiyasiga qaraydigan bo'lsak, qora-ko'mir tusidagi eng to'q rangdir. Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma'noni va boshqa bir necha ma'noni anglatgan bu sifat asli qora tarzida talaffuz qilingan[Rahmatullayev, 2000: 566], qora rang-tusi mavjud ranglarning barchasidan to'q; qozon kuya, ko'mir tusidagi: qora soch, qora qozon, qora ko'z, qora siyoh kabilar

Qora rang borliqda anglatgan leksik ma'nosidan tashqari konnotativ, ya'ni ramziy ma'nolar ham ifodalaydi. Jumladan, qora rang ko'pgina xalqlar madaniyatida o'lim va motam ramzini, qadimgi Misrda esa hayot va qayta tug'ilishni, o'rta asrlarda tantanali va hokimiyat ramzi bo'lgan, shuning uchun sudyalari, bosh hokimiyat vakillari tez-tez qora rangli liboslar kiyib yurishgan[https://orifolib.uz], milliy tariximizga qaraydigan bo'lsak, qora leksemasi "Avesto" da yovuzlik, yomonlik kabi ramziy ma'nolarni anglatadi. Alisher Navoiy davrida esa qora rang buyuklik, ulug'lik ramzi hisoblangan. Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonida Chin xoqoni farzandli bo'lgan kuni mamlakatdagi hamma devorlarni qora rangli ipak matolar bilan bezash buyrug'ini bergan, demak, bu holat qora rangning buyuklik, ulug'lik kabi konnotativ ma'nolarni ifodalashini ko'rsatadi. Bu tushuncha hozir ham ayrim viloyatlarda saqlangan. O'zbeklarda Qoravoy, Qorajon, Qora botir, Qoraxon degan ismlarning qo'yilishi ham bu fikrni dalillaydi.

Milliy madaniyatimizni o'zida aks ettirgan maqol, matal, iboralarda ham qora rang o'ziga xos konnotativ ma'nolarni o'zida mujassamlashtiradi. Masalan, baxti qora, dili siyoh bo'ldi, ko'ngli qora, ko'z qorachig'idek, ko'z qoraydi, qon qora qaqshatmoq, qora kun, qoraga olib qo'ymoq, qorani oq demoq, qorasini ko'rsatmaslik, qorasi o'chdi, qora terga tushmoq, qora tortib, qora xat, yuragi qora, qora tovuq ham oq tuxum qiladi, qora ko'ngil- yara ko'ngil, qora taxta, yuziga qora surtmoq, qora qilmoq(qoralamoq), qora bo'lib qolmoq, orqa oldinga qora tosh, og'zi burningdan qora qoning kelsin, oqni qora, qorani oq deydigan, qaro yer bo'lgur kabi frazeologik birliklarda ramziy ma'nolar ifodalaydi.

Yusufbek hoji xatmi Qur'on qilib yurtga osh berdi, O'zbek oyim qora kiyib ta'ziya ochdi(A.Qodiriy "O'tkan kunlar"). Yuqorida keltirilgan ushbu parchalarda qora leksemasi aza, ya'ni ta'ziya libosi ma'nosida qo'llanilib, O'zbek oyimning aza ochganligi ma'nosini ham ifodalagan, bundan tashqari, millat uchun ham aza ochganligini ifodalamoqda.

Axir men zinhor bunday xayollarga bormaganman, o'yimning bir chekkasiga ham keltirmaganman, bunday sovuq va qora xayollarni. Siz esa... qo'rqib ketdim. Parvardigorning o'zi asrasin bunday kunlardan, mehribonim!(X.Do'stmuhammad

"Men- sensiz, sen -mensiz") Qora xayollar iborasida qora leksemasi ot bilan komponent hosil qilib, yomon xayol ma'nosini ifodalagan.

Ko'ngli qora frazeologik birikmasida "qora" leksemasi yovuzlik, yomonlik kabi ma'nolarda qo'llangan, ya'ni ko'ngli qora -yomon, buzuq niyatli, g'arazgo'y, boshqalarga yaxshilikni ravo ko'rmaydigan, birovni ko'ra olmaydigan, niyati buzuq, ko'nglida kiri bor kishi xarakteriga nisbatan ishlatiladi. Bu frazeologik birlikning ichi qora, qora ko'ngil,qora yurak, yuragi qora kabi variantlari mavjud. Masalan, Qahqaha zo'ridan devorlar qimirlab, shift boshimga ag'darilgandek bo'ldi.— Voy, qora yurakli hayosiz-e! Qiz boshing bilan mening hujramga tungi ko'ylakda kirishga uyalmadingmi? O'sha paytdagi ahvolimni ko'rishni istardim, kim bilsin, qanday rangga kirib, qanday rangdan chiqdim ekan (R.N.Guntekin "Choliqushi"). Agar u odamingizning gapi rost bo'lsa, ikkita xotinli odam jamiyatga zarar keltirsa, uchtami, to'rtta xotin olganlar jamiyatga o't qo'yar ekan-da. Siz to'g'ri fahmlagansiz: ichi qora odamga o'xshaydi. (T.Malik "Murdalar gapirmaydilar")

"Dili(ni) siyoh bo'ldi(qilmoq)"-ushbu iborada qora o'rnida tojikcha siyoh leksemasi qo'llanilgan. Bu leksema xat yozishda ishlatiladigan rangli suyuqlik[Rahmatullayev, 2000: 214] va qora rang ma'nosini ifodalaydi. Avvallari bu suyuqlikning rangi faqat qora rangda bo'lganligi uchun siyoh leksemasi rang ma'nosini ifodalash uchun ham qo'llaniladi. Iborada siyoh ko'chma ma'no ifodalaydi, ya'ni kimnidir xafa qilmoq yoki kimdandir xafa bo'lmoq ma'nolarini ifodalaydi. Variantlari: ko'ngli buzildi, ko'nglini buzmoq, ko'ngli qora bo'ldi: To'y aniq bo'lganida, oldiga o'tqazib qo'yib, lo'ndagina qilib tushuntirgan edi. «O'zing xohlab qilyapsan shu ishni, bilib qo'y, to'ydan keyin mayda-chuyda gaplarni ko'tarib keladigan bo'lsang, dilingni siyoh qilib qo'yaman». (O'Hoshimov "Quyosh tarozisi")

Siyoh leksemasi qora rangli yozish vositasi sifatida qo'llanadi, lekin bu leksema konnotativ ma'nolarni ham ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, siyoh baxt iborasida siyoh so'zi baxt so'zi bilan birikib, siyahbaxt-baxtsiz, iqbolsiz, hayoti xorlik bilan, azobda o'tadigan kabi ma'nolarni ifodalashga xizmat qiladi:

Yanglish so'zlaysiz, onajon! — dedi Kumush va: — Siz dunyoda turishka loyiq edingiz, lekin sizning dunyo-dan to'yishingizga va qon-qon yig'lashingizga sababchi men bo'ldim. Men siyoh baxt dunyog'a kelmagan bo'lsam edi, sizga munchalik kulfatlar munchalik an-duhlar ham yo'q edi (A. Qodiriy "O'tkan kunlar").

Men kanizi siyahbaxti laim,

Ham siyahbaxt-u ham siyoh kalim ("Sab' ai sayyor")

Ushbu baytda siyoh kalim birikmasi ham qo'llangan bo'lib, siyoh leksemasi kalim leksemasi bilan birikib hech kimga keraksiz hamsuhbat kabi konnotativ ma'noni ifodalagan. Variantlari: baxti qora, qora baxt: «Orqangga qayt, baxti qora, hali ham kech emas, halok bo'lasan!» — dedi ichki bir ovoz unga. — Yo'q, men oxirigacha ahdimda turaman! — javob qaytardi ovoz chiqarib Nurbek. (Ch. Aytmatov "Baydamtol sohillarida").

Qora kun iborasida qora leksemasi turmushning azob-uqubatlilik, og'irchilik, vazminlik bilan bog'liq bo'lgan davrni; mashaqqatli, azobli, og'ir ma'nolarini ifodalagan: Adolat esa mehribonlik qilib unga yana uchta qiz tug'ib berdi. Qizlari tug'ilgunicha bir navi edi. Ana undan keyin Nafisaning ham qora kunlari boshlandi. ("T. Malik "Murdalar gapirmaydilar")

Bilgin, Ko'kamanning ko'ngli qabardi,

Agar bilsang, alplar xabar topadi,

Ot o'ynatib, bari yig'ilib keladi,

Qora kunni o'zbeklarga soladi ("Alpomish").

Yuzini qora qilmoq iborasida qora leksemasi badnom, sharmanda qilmoq ma'nolarini ifodalashga xizmat qilgan: Dunyoda bundan ham kulgiliroq narsa bo'lmas. Hoji xalfa qizchasining kitoblarini, daftarlarini zo'rlik bilan tizzasiga qo'yib: — Qani, ko'raylik-chi, xo'jayinim oldida yuzimni qora qilsang, yedirgan nonim, ichirgan namagimni burningdan chiqarib olaman, — dedi. (R.N. Guntekin "Choliqushi"). Varianti: yuziga qora surtmoq: Mash'um tuzum Qodiriyning munosib o'rinbosari bo'ladigan va kelajakda o'zbek adabiyotining navqiron avlodi sig'inib yuradigan eng to'g'riso'z, haqgo'y, matonatli insonni ham chohga sudraydi, kelajak oldida yuziga qora surtib qo'yadi.

Yuzi qora bo'lmoq iborasida ham qora leksemasi asosiy komponent hisoblanadi va kimningdir yomon, uyatli ish qilib, obro'sizlangan, gunohkorona holatga tushib qolishi ma'nosini ifodalaydi, yuzini qora qilmoq va yuzi qora bo'lmoq iboralari bir-biridan fe'l leksemalar orqali farqlanadi, ya'ni qilmoq va bo'lmoq fe'llari frazeologik birliklarning boshqa-boshqa ma'no ifodalashiga xizmat qilgan:

Dardimizga ushbu kunda keldi chora, Bugun bo'ldi zolimlarning yuzi qora (Majid G'afuriy "Shodlik" she'ri)

Qoraga olib qo'yimoq iborasida kim nimani kuzatib turishni lozim deb belgilab qo'yimoq [Rahmatullayev, 1992: 234] ma'nosini ifodalagan. Bu frazeologik birlikda qora leksemasi mo'ljalga olingan yoki olinadigan narsa, nishon; mo'ljal ma'nolarida qo'llanilgan: Mergan bo'lsang, o'shal og'ochni qoraga olib otg'il (Mirkarim Osim "O'tror").

Qora olib iborasida qora leksemasi kim yoki nimanidir mo'ljal qilib, o'sha mo'ljal asosida harakat qilish [Rahmatullayev, 1992: 234] ma'nolarini ifodalayapti: Ular ertalab o'tgan qo'y suruvlarining izini qora olib tepaliklar osha yurishadi (A. Hasanov "Chiroqlar").

Qorani oq demaq iborasida qora va oq leksemasi zidlik hosil qilib, haqiqatni teskari talqin qilgan holda yolg'onni haqiqat, yomonni yaxshi, noto'g'rini to'g'ri deb bilish ma'nolarini ifodalash uchun qo'llanilgan: Ota va akalarining huzurida jilla oshib-toshmasa ham, ular yo'q vaqtda qiz o'zini "uy boshi" hisoblar, har bir ishda o'z ra'yini o'tkazishga astoydil urinar, o'jarlik bilan qorani oq deb isbot qilishga tirishar edi (Oybek "Qutlug' qon")

Qorasini ko'rsatmaslik - Bu iborada qora leksemasi kim kimningdir ko'ziga hech ko'rinmaslik ma'nolarini ifodalashga xizmat qilgan: Ha, bolam qola qol, chirog'im... Obbo, jinni qiz-e! Yuragimni qinidan chiqaza yozding-a! O'zing ham kuzdan beri qorangni ko'rsatmay qo'yding. Kel, o'tga yaqin kelib o'tir, isinib ol (Ch. Aytmatov "Birinchi muallim").

Qorasi ko'rindi iborasida qora leksemasi tunda yoki uzoqdan kimningdir ko'ringan ko'lankasi, sharpasi [Madvaliyev, 2006: 336] ma'nolarini ifodalaydi: Uyning yopiq derazasi go'yo shu sukunatga xalal bermoqchi emasdek «qirs... s...» etib jur'atsizgina ochildi. Tabaqalar yarim-yorti ochilib ulgurmay... Oshxona muyulishida juvonning qorasi ko'rindi (X. Do'stmuhammad "Vasiy")

Qorasi o'chdi kimningdir uzoqlashib, ko'rinmay ketishiga nisbatan qo'llaniladi. Eng qizig'i, o'sha voqeadan so'ng Mirodilning ham qorasi o'chdi. Hatto ko'cha-kuyda ham ko'rinmaydigan bo'ldi (R. Jabborov "O'rinsiz rashk iztirobi").

Qora terga tushmoq iborasida zo'r berib, qiynalib og'ir mehnat qilish natijasida mo'l-ko'l terlamog: Otlar jiqqa ho'l bo'lib to'xtab qolishdi... Sultonmurod egardan tushdi-da, shishib, ezilib ketgan oyoqlarida bazo'r turib xuddi mast odamday gandraklab otlarning orasidan o'tdi. Qora terga botib, qaltirayotgan, quloqlaridan tuyog'igacha ho'l bo'lib, sillasi qurib zo'rg'a nafas olayotgan otlarni ko'rib shunday ichi achishib ketdiki, beixtiyor ingrab yubordi (Ch. Aytmatov "Erta qaytgan turnalar").

Qora tortib bormoq kishining boshqa biror kishiga ishonib, unga suyanib, yordam so'rab bormoq [Sodiqova, 1974: 93]: Bo'ri polvon! — dedi. — Enangni qozi... Dodingni kimga aytasan, deydi! Yurt so'raydigan raisi shul bo'lgach, fuqaro dodini kimga aytadi?! Brigadiriga aytadi-da! Bo'ri polvon ko'tarilib-ko'tarilib ketdi: El Bo'ri polvonni qora tortib keldi! (T. Murod "Yulduzlar mangu yonadi").

Qora qilmoq (qoralamoq) iborasi kimnidir aybdor, gunohkor qilmoq ma'nosini ifodalaydi: Salim ham butun aybni Yo'lchiga ag'darib, o'zini quruqqa tortdi. Uning "axloqsizligi" to'g'risida birmuncha gaplar to'qidi va dadasini haqorat qilganligi, haqqimni yeb ketdi boy deb ko'cha-ko'yda boyni qoralab yurganligini aytdi (Oybek "Qutlug' qon").

— Ha, yash-sha-a! — dedi u Farhodning tirsagidan tutib, - shuni unutmalar: qora qozon qaynab turganiga shukr deydigan zamonlar o'tib ketdi, endi qozon mazali qaynasin, jonon masalliq'larga to'lib qaynasin deb yashaydigan payt keldi

(X. Do'stmuhammad "Ko'za"). Ushbu keltirilgan parchada ham qora leksemasi qozon leksemasi bilan birikma hosil qilib, ko'chma ma'noni, ya'ni bunda qozonning rangi emas, kuni o'tib turganligi, har kuni bir marta bo'lsa ham, qozonida ovqat pishirilayotganligi ma'nolari ifodalashga xizmat qilgan.

Qora xat halok bo'lgani ya'ni vafot etganligini oila-a'zolariga xabar qilish uchun jo'natilgan xabarnoma, ya'ni bu birikmada ham qora leksemasi ko'chma ma'no ifodalamoqda: Bir hafta burun Zelihonlarnikiga qoraxat kelib aza ochilgan edi. Olti yoshga to'lgan bola dam onasiga qo'shilib yig'lardi, dam bobosiga qo'shilib qo'lini fotihaga ochardi (T. Malik "Shaytanat")

Chilvir otib, qad ko'targan tokni ko'rdim,

Asriy qora xat ko'targan zog'ni ko'rdim,

Oymomani dast ko'targan tog'ni ko'rdim,

Shavqi baland sog'lar mudom mastmi, Salim,

Sening darding mening dardimmasmi, Salim? (I Mirzo "Sizni kuylayman")

"Ko'z qorachig'idek" iborasida qora sifati qorachiq so'zi bilan birikib, o'ta darajada avaylamoq, g'amxo'rlik ko'rsatmoq kabi ma'nolarni ifodalaydi. Bilamizki, ko'z qorachig'i, ya'ni ko'z nurimiz bo'lib, uni shu darajada asrab-avaylaymiz, chunki u bizga olamni ko'rishimiz vazifasini bajaradi. Variant: ko'z qorasidek, ko'zining oq-u qorasi. Moskva pochtasining blankasiga qistanib yozilgan otamning eng oxirgi maktubi hozirgacha saqlanib qolgan. Uning har bir jumlasidan hadik-xavotir sezilib turadi: "Bugun bo'lmasa, ertaga hibsga oladilar". U onamga bolalarni ko'z qorachig'iday avaylab asragin deb qayta-qayta tayinlagan, boz ustiga, mening vijdonim toza, hech qanday aybim yo'q deb qasam ichgan edi (Ch.Aytmatov "Cho'qqida qolgan odam").

Qosh qoraydi iborasida qora sifati qorong'u, zulmat ma'nolarini ifodalagan, ya'ni falakda yorug'lik o'rmini qorong'ulik oldi kabi ma'nolar aks etadi. Variantlari: ko'z qoraydi, kun qoraydi, osmon qoraydi. Yo'l bo'yidagi ariqlar afti burishganicha muzlab qolgan, daraxtlar cho'ltoq supurgiga o'xshaydi. Havo, kuni bo'yi zo'r berib loaqal to'rttagina qor tashlamaganidan xunob bo'lganday, qovog'i soliq. Shuning uchun, hali kun botmagani holda, qosh qoraygan. (A.Qahhor "Karavot")

Qorasi o'chsin, qaro yer bo'lgur, og'zi-burningdan qora qoning kelsin qarg'ish iboralar bo'lib, bunda qora leksemasi ot va fe'l komponent bilan birikma hosil qilib, g'azab, nafrat kabi salbiy ma'no ifodalaydi: Ayollar ko'prik boshida chapak chalib, tizzalarini urib chinqirishdi: "Dod zolimlarning dastidan! Oq podshoning taxti kuysin! Qorasi o'chsin!(Oybek "Qutlug' qon")

"Sen kasofat... sen shumqadam...sen ajinaning urg'ochisi kelib, bolaginamning boshiga yetding! Qanday ulim bor edi-ya, qatorida nor edi-ya! Ha, urug'-aymog'ing bilan qaro yer bo'lgur!", haydagani-haydagan: "Yo'qol, alvasti! Qirilib ket shaytonning urg'ochisi!" (Bayram Aytmurod "Yurakka yuk tushdi")

– Senga nima balo bo'ldi?! Yog'och bo'lib qolganmi deyman qo'ling? - deb menga xo'mrayib g'ajib tashlamoqdan beri bo'lib o'tirdi. Keyin sabri chidamay qoldi shekilli: – Qora qoning og'zingdan kelgur! Tur o'rningdan, Sayqal buvining qopini oborib ber, - dedi.(Ch. Aytmatov Birinchi muallim)

Oqni oqqa, qorani qoraga ajratmoq iborasida oq va qora leksemalari zidlikni yuzaga keltirib, bu ranglar ijobiy va salbiy, ya'ni haqni va nohaqlikdan, yaxshini yomondan farqlash[Sodiqova, 1974: 94] ma'nosini ifodalagan: Tunda uxlamagan bo'lsa-da, uyqusi kelmadi... Xayolidagi gaplarni qog'ozga tushurishga darrov kirisha olmadi. Chunki bilim yurtida unga oq-u qorani ajratishni o'rgatgan ustozlarning askari bu idoraning hukmi bilan o'ldirilgan bo'lsalar-da, hanuz qora ro'yxatda turadilar (T.Malik "Ozod inson haqida qo'shiq").

Qora leksemasi xalq maqollarida ham o'ziga xos ko'chma ma'no ifodalashga xizmat qilgan. Masalan, qora tovuq ham oq tuxum qiladi maqolida odamlarning tashqi ko'rinishiga qarab xulosa chiqarish, tashqi ko'rinishi bilan muomala qilish kerak emasligini, aksincha, uning aql-zakovati, xayrli ishlari, gap-so'zlariga qarab muomala qilish kerakligi[Shomaqsudov, 1988: 332] kabi ma'no yotadi. Chunki har qaysi xunuk odam yomon bo'lavermaydi, u ham yaxshiliklarga, ezgu ishlarga qodir bir inson bo'lishi mumkin. Variantlari: qora sigir ham oq sut beradi, har yuzi qoraning ko'ngli qora bo'lavermas, qora bulutdan tiniq suv tomar.

Qora ko'ngil-yara ko'ngil maqoli esa ko'ngli qora odamning yuragida hech yaxshilik, ezgulik bo'lmaydi, qora ko'ngil odamga to'g'ri so'z, pand-nasihat kor qilmasligi ma'nosi aks etadi.Variantlari: quduq tubiga quyosh tushmas, yomonning diliga yaxshilik nuri tushmas, ko'ngil kiri yetti daryoda yuvsu ketmas[Shomaqsudov, Shorahmedov, 1990: 496]. Ya'ni ko'ngli qora inson xuddi jarohatlangan, yaralangan kabidir.

So'raganning bir yuzi qora, bermaganning ikki yuzi qora nasihat mazmunidagi maqol bo'lib, qora leksemasi ko'chma ma'noda qo'llanilib, ushbu maqol kimdir sendan yordam so'raganda imkonning bo'lsa, yordam qilgin, ammo imkonning bo'la turib yordam qilmasang, bu sening ziqnaliging, qizg'anchiqligingdir[Shomaqsudov, 1988: 246] mazmunini ifodalaydi. Qora itning uyati oq itga tegar maqolida ham qora va oq leksemalari zidlikni hosil qilib, ko'chma ma'no ifodalashga xizmat qilgan, ya'ni yomonning yomon ishi yaxshiga ham zarar berar, qilgan yomonligingning bir chekkasi yaqinlaringga ham ziyon yetkazadi, uyatli bir holatingdan oiling ham zarar ko'radi ma'nolarini ifodalaydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ranglarning bu kabi konnotativ ma'nolarni ifodalashida biz tilimizning naqadar boyligini, rang-barangligini ko'rishimiz mumkin. Qora tilga olinishi bilan ongimizda yovuzlik, yomonlik yoki buyuklik kabi ma'nolarning aks etishi ham milliy-madaniy, tarixiy urf-odatlarimiz bilan bog'liqdir.

ADABIYOTLAR

1. Rahmatullayev SH. O'zbek tilining etimologik lug'ati(turkiy so'zlar),–T.: Universitet, 2000. – B 566
2. Rahmatullayev SH. Keltirilgan manba. B 214
3. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati, T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1992. – B
4. Internet ma'lumotlari asosida: <https://oriftolib.uz>
5. Madvaliyev A. O'zbek tilining izohli lug'ati. Q harfi. –T.: O'zME, 2006. – B 336.
6. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Hikmatnoma. O'zbek maqollarining izohli lug'ati. –T.: O'zSE, 1990. – B.496
7. O'zbek xalq maqollari. –T.: Sharq, 2005. – B 332.
8. Sodiqova M. Hozirgi o'zbek tilida sifat. – T.: Fan, 1974. – B 93
9. Sodiqova M. Keltirilgan manba. B 94.
10. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Nega shunday deymiz? O'zbek maqollarining izohli lug'ati. –T.:G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at, 1988. – B 246.
11. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Keltirilgan manba. B 332.